

**MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING
XIZMAT KO'RSATISHDAGI IMKONIYATLARI**

Nazirov Jumanazar Olimjonovich

Qarshi davlat texnika universiteti 2-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.09.2025

Revised: 25.09.2025

Accepted: 26.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

xizmat ko'rsatish,
konsalting xizmatlar,
g'oya, tovar,
texnologiya, yangilik,
ijodkorlik, iqtisodiy
samara, samaradorlik,
samaradorlikni
baholash,
raqabatbardoshlik,
mexanizm..

Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ўрни, asosiy yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan faoliyat turlari, zamonaviy texnologiyalar va xizmat ko'rsatishning hozirgi holati, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda ushbu choralar natijasida erishilgan yutuqlar har tomonlama tahlil qilingan.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda uzoq tarixga bog'liq tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish jarayonlarida orttirilgan tajribalardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimi aholi farovonligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizdagi qulay ishbilarmonlik muhiti, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar yangi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soha faoliyatini rivojlantirishga doir islohotlar natijasida ularning oldidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish hamda korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois, tadbirkorlarning huquqlarini muhofaza qilish mutasaddi davlat organlari, muassasalari, huquq-tartibot organlarining ustuvor vazifasiga aylandi. Bugungi kunda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'i aynan kichik

biznes hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois, tadbirkorlarning huquqlarini muhofaza qilish mutasaddi davlat organlari, muassasalari, huquq-tartibot organlarining ustuvor vazifasiga aylandi.

Jahonda ro'y berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida dunyo bo'yicha 56 million kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki yangi ish o'rinlarini yaratishning o'ziga xos mexanizmlarining tarkib topgani va, uning bir qator yo'nalishlar bo'yicha izchil amal qilib kelayotganidir. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-104-sonli qaroriga asosan tumanda yangi xizmat ko'rsatish loyihalari tashkil qilish bo'yicha yillik reja 362 tadan iborat bo'lib, bugungi kunda amalda 365 ta (rejaga nisbatan 100,1%) qiymati 107,4 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatish loyihalari ishga tushirildi shundan markaziy ko'cha (mustaqillik)da reja 34 ta amalda 49 ta (rejaga nisbatan 144,0%)ga oshirib bajarildi, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha yillik reja 3184 ta bo'lib bugungi kunda 2578 ta (rejaga nisbatan 81,0%) ga bajarildi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot²

² Manba. Qashqadaryo viloyatistatistika boshqarmasi ma'lumotlari

=====

Aholini tadbirkorlikga keng jalb qilish maqsadida 9 oy davomida Har bir oila tadbirkor dasturi asosida 1452 ta fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga jami 35 mlrd 105 mln so‘m shundan, AT Halq banki beshkent filiali tomonidan 717 ta 15 mlrd 405 mln so‘m, ATB Mikrokreditbank Beshkent filiali tomonidan 425 ta 10 mlrd 442 mln so‘m, ATB Agrobank Beshkent filiali tomonidan 310 ta 9 mlrd 325 mln so‘m kredit mablag‘lari ajratib berildi.

Bugungi kunda dehqon xo‘jaligi sohasida jami 892 nafar fuqarolarga 366,7 gektar yer maydoni ajratib berilib 828 ta dehqon xo‘jaliklari tashkil qilindi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida 9 oy davomida 13713 nafar fuqarolarni bandligi ta‘minlandi, jumladan 6422 nafar ishsiz fuqarolar doimiy ish bilan ta‘minlandi, 590 nafar ishsiz fuqarolar mavsumiy ishga joylashtirildi, 6701 nafar fuqarolar o‘zini o‘zi bandligi ta‘minlanib (o‘zini-o‘zi band qilish viloyat reja 1700 ta) yillik reja 394 %ga oshirib bajarib bo‘lindi.

Yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil qilish borasida: Tumanda 9 oy davomida jami 1934 ta tadbirkorlik subyektlari tashkil qilinib? shundan 461 ta yuridik korxonalar va 1473 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarini tashkil qiladi.

Hokim yordamchilari tavsiyanomalari asosida 2421 ta loyihaga jami 42,9 mlrd. so‘m imtiyozli kredit va 334 nafardan ortiq ishsizlarga 473,3 mln. so‘m subsidiyalar ajratildi, 1178 nafar aholi kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitildi. Hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 912 tadan ortiq “mahallabay” mikroloyihalardan 912 tasi ishga tushirilib, 2012 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Tumandagi 334 ta kam ta‘minlangan xonadonlarga moddiy yordamlar ko‘rsatildi jumladan 320 ta xonadonga 29 ming bosh parranda, 14 ta xonadonga 14 ta inkubator tarqatib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 25 martdagi “Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 182-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida ushbu mazmunda 2022-yilda jami 449 ta murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan 101 nafar murojaat mualliflariga ishchi komissiya tomonidan ijobiy xulosa berildi, qolgan 348 nafar murojaat mualliflariga ishchi komissiya tomonidan nizom talablariga mos kelmaganligi sababli rad etildi.

Viloyatdagi barcha mahalliy boshqaruv va ijro organlarining tadbirkorlik sohasiga oid faoliyati tahlil qilinganda tadbirkorlarning yanada samaraliroq faoliyat yuritishlari uchun to‘siq bo‘layotgan quyidagi muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanadi:

-tadbirkorlar uchun yer ajratish va infratuzilma tarmoqlariga ulanishda belgilab berilgan muddatlarga rioya qilmaslik yoki asossiz rad etish;

-tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish, ruxsat berish, litsenziyalash va mulkga egalik huquqini belgilashda vakolatli organlar tomonidan sansolarlik va ortiqcha qog‘oz talab qilish holatlari;

=====

-kredit ajratishda «resurs yo‘q», «garov ta‘minoti yetarli emas» kabi asossiz vajlarning ishlatilishi, kredit foizlarining yuqoriligi hamda garovga qo‘yilayotgan mulklarni narxlashda tadbirkor bilan bank o‘rtasida kelishmovchiliklarning ko‘plab mavjudligi;

-banklar tomonidan kredit foizini belgilashda tadbirkorlik yo‘nalishidan kelib chiqib, differensial yondoshuvning yo‘qligi sabab, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish samaradorligining pastligi;

-tadbirkorlarga tegishli bo‘lgan xususiy mulklarning asossiz olib qo‘yish, obodonlashtirish bahonasida tadbirkorlar mulkini noqonuniy buzish yoki ko‘chirish holatlarining ko‘plab uchrayotganligi;

-soliq imtiyozlarini qo‘llash, faoliyatingizga asossiz aralashish va homiylik qilishga majburlash holatlariga barham berilmayotganligi;

-mahalliy hokimliklarda malakali mutaxassislarni yetishmasligi, soliq, savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari, davlat aktivlarini boshqarish hamda davlat xizmatlari agentliklari, arxitektura, kadastr va shu kabi tadbirkorlik faoliyatiga aloqador bo‘lgan boshqa ko‘plab idoralar o‘rtasida uzaro bog‘liqlikning muvofiqlashmaganligi sababli, hududlardagi mineral resurslar, tabiiy boyliklar va iqlim sharoitidan kelib chiqib, tashabbuskorlar va investorlarni yo‘naltirish, bu borada zarur axborotlarni taqdim qilish tizimi to‘laqonli shakllanmaganligi ko‘zga tashlanadi.

Davlatimiz rahbari «Ikkita ish joyi yaratgan odamni yelkamda ko‘taraman» deya tadbirkorlarni ruhlantirib turgan bir paytda, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari faoliyatida yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligiga salbiy holat deb qarash mumkin.

Hozirgi kunda Qarshi tumanidagi «Sharofiddin Nurullo» mas’uliyati cheklangan jamiyati aholiga yuk va yo‘lovchi tashish xizmatini yo‘lga qo‘yib, 120 nafar fuqaroni ish bilan ta‘minladi va davlatga yiliga 400,0 mln.so‘m soliq to‘lamoqda.

Nishon tumanidagi «Nishon ko‘zgu» ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi esa 100 nafarga yaqin fuqaroni ish bilan ta‘minlab, yiliga 1 million 200 ming dollar qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini amalga oshirgan holda davlatga 120 mln. so‘m soliq to‘lamoqda.

Xuddi shunday, paxta to‘qimachilik klasteri tashkil qilib 250 nafar ish o‘rni yaratgan Qarshi shahridagi «Sulton teks group» xususiy korxonasi hamda meva-sabzavot klasteri tashkil qilayotgan Yakkabog‘ tumanidagi «Sharofat ona Qahramon qizi» mas’uliyati cheklangan jamiyatini ham alohida ta‘kidlab o‘tish mumkin.

Shuningdek, 2023 yilda kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini 67 foizga yetkazish maqsadida barcha zaruriy choralar ko‘rildi. Xususan, 9 mingdan ziyod yuridik maqomdagi yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish hamda faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan 3 mingdan ortiq subyektlarni qo‘llab-quvvatlash orqali faoliyatini tiklash ta‘minlandi. Bundan tashqari, kelgusi yilda tadbirkorlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan 1 trln. 695 mlrd so‘mlik 312 ta sanoat, 1 trln. 491 mlrd. so‘mlik 478 ta xizmat ko‘rsatish va 1 trln. 350 mlrd.so‘mlik 407 ta qishloq xo‘jaligi sohasidagi yangi

loyihalarini to'liq ishga tushirilishi uchun qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Biz quyidagi jadval orqali Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida 2024 yilda xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida 2024 yilda xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari³

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	12618,5	100,0	111,8
Qarshi shahar	3600,4	28,5	118,9
Shahrisabz tumani	614,9	4,9	111,0
G'uzor tumani	516,6	4,1	110,0
Dehqonobod tumani	375,2	3	109,2
Qamashi tumani	674,4	5,3	107,1
Qarshi tumani	765,0	6,1	111,8
Koson tumani	827,2	6,5	109,4
Kitob tumani	807,9	6,4	109,8
Mirishkor tumani	555,9	4,4	107,8
Muborak tumani	807,9	6,4	109,9
Nishon tumani	464,0	3,7	108,9
Kasbi tumani	549,9	4,4	106,5
Ko'kdala tumani	202,5	1,6	108,0
Chiroqchi tumani	467,5	3,7	109,6
Shahrisabz tumani	731,0	5,8	109,3
Yakkabog' tumani	658,1	5,2	107,9

Jadval ma'lumotlariga ko'ra ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)⁴

³ Manba. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

⁴ Manba. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	12 618,5	100,0	111,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	632,5	5,0	114,7
Moliyaviy xizmatlar	2 406,1	19,1	122,9
Transport xizmatlari	2 362,3	18,7	107,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 206,0	17,5	109,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	389,6	3,1	105,6
Savdo xizmatlari	3 805,4	30,2	109,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	296,0	2,3	110,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	627,6	5,0	122,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	197,2	1,6	111,3
Ijara xizmatlari	283,4	2,2	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	495,5	3,9	110,5
Shaxsiy xizmatlar	480,4	3,8	107,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	163,5	1,3	110,3
Boshqa xizmatlar	479,0	3,8	104,3

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi(MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz mumkinki, xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish, har bir tadbirkorning muammolarini tezkorlik bilan hal qilish va byurokratik holatlarga chek qo'yish maqsadida chet el investitsiyasi ishtirokidagi va xorijiy korxonalar tashkil qilish loyihalarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir tadbirkorning mulkiy daxlsizligi kafolatlanadi, uning mulkini asossiz buzish, ko'chirish yoki olib qo'yish hollariga yo'l qo'yilmaydi. Xizmat ko'rsatuvchilarga va tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha aralashish, homiylik qilishga majburlash, tadbirkorlikka taalluqli bo'lmagan har xil majlislarga chaqirish holatlariga barham berilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630-sonli Qonuni. 2020 yil 24 iyul
2. «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi qarori. / Xalq so'zi 37-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-157 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral
6. Aliev Y.E. «Innovatsion iqtisodiyot»o'quv qo'llanmasi, Toshkent, Iqtisodiyot, 2019.